Jumanov Ziyadulla Eshmamatovich - t.f.d. professor
Davronov Oybek Otabek o'g'li - assistent
Pirmatov Salix Vahob o'g'li - assistent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O'zbekiston)

BUYRAK KOSACHALARI TUZILMALARIDAGI MORFOLOGIK O'ZGARISHLARINI BUYRAK TOSH KASALLIGIGA XOS BO'LGAN JIHATLARI

Annotasiya. *Buyrak tosh kasalligi tufayli 22 nafar bemorlardan olib tashlangan buyrakdan kosachalaridan olingan to'qima bo'laklari patomorfologik tekshiruvdan o'tkazilgan. Aniqlanganki, buyrak tosh kasalligida yuqorgi kosachalarida distrofik va nekrobiotik o'zgarishlar kuchli ivojlangan bo'lsa, o'rta qavatida ularning kam miqdordagi o'zgarishlari qayd etiladi. Pastki kosachalarda sklerotik jarayonlarning boshlanganligi kuzatiladi. Bu esa buyrak tosh kasalligini davolash tadbirlarida alohida e'tiborga olinishi lozimligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *Buyrak tosh kasalligi, kosacha, distrofiya, shishinish.*

Жуманов Зиядулла Эшмаматович - д.м.н., профессор
Давронов Ойбек Отабек угли - ассистент
Пирматов Салих Ваҳоб угли - ассистент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

ПАТОМОРФОЛОГИЯ ИЗМЕНЕНИЙ СТРУКТУР ВБЛИЗИ КАМНЯ ПРИ ПОЧЕЧНОКАМЕННОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧКАХ

Аннотация. *Патоморфологическому исследованию подвергнуты образцы тканей почечных чашечкb, взятых у 22 пациентов с камнями почек. Установлено, что при мочекаменной болезни дистрофические и некробиотические изменения сильнее развиты в верхней чашечке, тогда как в среднем слое их изменения отмечаются незначительные. В нижней чашечке наблюдается начало склеротических процессов. Подчеркивается, что это следует учитывать при лечении камней в почках.*

Ключевые слова: *Мочекаменная болезнь, чашечка, дистрофия, отек.*

Ziumanov Ziyadulla Eshmamatovich - DSc., Professor
Davronov Oybek Otabek ugli - assistant
Pirmatov Salix Vahob o'g'li - assistent
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

ASPECTS OF MORPHOLOGICAL CHANGES IN THE STRUCTURES OF THE RENAL CALCIUM CHARACTERISTIC IN KIDNEY STONES

Abstract. *Tissue fragments from the renal calyces removed from 22 patients with kidney stones were subjected to pathomorphological examination. It was found that in kidney stones, dystrophic and necrobiotic changes are strongly developed in the upper calyces, while their minor changes are noted in the middle layer. Sclerotic processes are observed in the lower calyces. It is emphasized that this should be taken into account in the treatment of kidney stones.*

Keywords: *Kidney stones, calyx, dystrophy, edema.*


Muommaning dolzarbligi. Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab buyrak tosh kasalligi urologik kasalliklar ichida 45 % gachani tashkil etishi aniqlanadi. Urologiyadagi barcha jarrohlik aralashuvlarning kamida 17% urolitiyoz uchun amalga oshiriladi [1,2]. Ilmiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, barcha buyrak toshlarining 35% holatlarda siydik yo'llari to'g'ma nuqsonlari mavjud bo'lgan odamlar guruhida aniqlanadi. [3,4]. Buyrak tosh kasalligini jarrohlik yo'li bilan davolsh usullsridan foydalanish samamradorligi bo'yicha har doim ham qoniqarli natijalarni bermaydi. Shuningdek, nefrolitiazning og'ir shakllari yuzasidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar ham kamchilikni tashkil qiladi [5,6].

Tadqiqotning maqsadi: Buyrak tosh kasalligida buyrak kosachalari tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlarini aniqlash.


Tadqiqotning material va usullari: Samaraqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasi urologiya bo'limida buyrak tosh kasalligi tufayli olib tashlangan buyrakdan olingan to'qima bo'laklari patologik anatomiya bo'limida o'rganildi. Buyrak tosh kasalligida kasalligida buyrak kosachalari tuzilmalarining morfologik va morofmetrik o'zgarishlarini nefrolitiaz kasalligiga bog'liqligini ba-

holashda anamnestik, makroskopik, mikroskopik, morfometrik va statistik tadqiqot usullaridan o‘tkazildi. Toqimalardan tayyorlangan gistologik qirqmalar Gemotosili-eozinda bo’yaldi.

Natijalar va xulosalar: olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, buyrak tosh kasalligi rivojlangan bemorlar buyragi kosachalari mikroskop ostida tekshirilganda yuqorgi kosachalar shilliq qavatidagi ko‘p qavatli o‘zgaruvchan epiteliy hujayralarida sitoplazmasida shishinish, yadrosning bo‘kish holati qayd etiladi. Aksariyat sohalarida ularning deskvamatsiya o‘choqlari aniqlanadi. SHilliq qavatining xususiy plastinkasidagi siyrak shakllangan biriktiruvchi to‘qimada oraliq to‘qimasining shishinishi, qon tomirlarining to‘laqonligi va qon tomirlar atrofida limfotsitar infiltratsiya aniqlanadi. Shilliq osti asosidagi siyrak biriktiruvchi to‘qima tolalarida shishinish qayd etiladi. Mushak qavatining ichki buylama silliq mushaklarning shishinishi va tolalanishi kuzatiladi. Tashqi aylana mushaklarining oraliq shishinishi qayd etiladi. Ularning oraliqlarida joylashgan qon tomirlarning kengayganligi va to‘laqonligi aniqlanadi. Tashqi adventitsiya qavati tolalarining shishinishi kuzatiladi. Kosachlarga tutsh naysimon kanalchalarning kubsimon epiteliy hujayralarida nekrotik jarayonlar qayd etiladi (1-rasm).




O‘rta qavatida joylashgan kosachalarning shilliq qavatida shishinish, o‘zgaruvchan epiteliyning sitoplazmasida kuchsiz shishinish, yadrosining rangni o‘ziga kam olishi-xira bo‘yalishi va bir guruh hujayralarning ko‘chib tushganligi kuzatiladi. O‘rta qavatdagi kosachalar xususiy plastinkasidagi biriktiruvchi to‘qimada kuchsiz oraliq shishinish qayd etiladi (1-rasm).



1-rasm. **Buyrak kosachalari devoridagi oraliq va hujayralar atrofidagi shishinish. Gematoksilin-eozinda bo’yalgan. Ob.40, ok.10**

Qon tomirlarining gipermiya holati hamda diapedez qon quyilishlar bo'lganligi aniqlanadi (2-rasm). Shilliq osti asosidagi biriktiruvchi to'qima tolalarida shishinish belgilari ayrim joylarida qayd etiladi. Mushak qavatining buylama mushaklarida shishinish belgilari kuzatiladi. Tashqi aylana mushak tolalarida kuchli shishinish namoyon bo'ladi. Adventitsiya qavati tolarining shishinishi qayd etiladi. Pastki qavat kosachalarining barcha qavatlarida ushbu o'zgarishlarning sklerotik jarayonlar bilan almashinuvi belgilari kuzatiladi.



2-rasm. **Buyrak kosachalari devoridagi diapedez qon quyilishlar. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Shunday qilib, buyrak tosh kasalligida yuqorgi kosachalarida distrofik va nekrobiotik o'zgarishlar kuchli ivojlangan bo'lsa, o'rta qavatida ularning kam miqdordagi o'zgarishlari qayd etiladi. Pastki kosachalarda sklerotik jarayonlarning boshlanganligi kuzatiladi. Bu esa buyrak tosh kasalligini davolash tadbirlarida alohida e'tiborga olinishi lozimdir.

ADABIYOTLAR

1. Трусов П.В, Коган М. И., Хван В.К. Эффективность и безопасность мини-перкутанной нефролитотрипсии в лечении крупных и коралловидных камней почек. Вестник урологии.2017;5(1):32-36. DOI: 10.21886/2308-6424-2017-5-1-32

2. Рогачиков В.В, Нестеров С.Н, Ильченко Д.Н, Тевлин К.П, Кудряшов А.В. Перкутанная нефроли-толапаксия: прошлое, настоящее, будущее. Экспериментальная и клиническая урология. 2016;(2):58-66.

3. Abdelhafez MF, Bedke J, Amend B, EI Ganainy E, Aboulella H. Minimally invasive percutaneous nephroli-tholapaxy as an effective and safe procedure for large renal stones. BJU International. 2012;(110):1022-1026. DOI: 10.1111/j.1464-410X.2012.11191

4. De la Rosette JJ, Zuazu JR, Tsakiris P, Elsakka AM, Zudaire JJ. Prognostic factors and percutaneous nephrolithotomy morbidity: a multivariate analysis of a contemporary series using the Clavien classification. The Journal of Urology. 2008; (180): 2489-93. DOI: 10.1016/j. juro.2008.08.025

5. Lojanapiwat B, Prasopsuk S. Upper-pole access for percutaneous nephrolithotomy: comparison of supracostal and infracostal approaches. Journal of Endourology. 2006; 20(7):491-4.

6. Muslumanoglu AY, Tefekli A, Karadag MA. Impact of percutaneous access point number and location on complication and success rates in percutaneous nephroli-thotomy. Urologia Internationalis. 2006;77(4):340-6.